



...Nafsning kelajagi — zulmdir, zulmning kelajagi esa — xorlikdir. Biz ana shu oddiy haqiqatni bayon qilmoqchimiz. Badan pokligi badanga, ruh pokligi ruhga hayot bag'ishlar...

Bismillahir Rohmanir Rohiym

«...Ana o'shalar hidoyatga zalolatni sotib olgandirlar. Va tijoratlari foyda keltirmadi hamda hidoyat topganlardan bo'lmadilar. Ular misoli bir o't (mash'ala) yoquvchiga o'xshaydilar. Olov endi atrofini yoritganida Oллоh yorug'likni ketkazib, ularni hech narsani ko'rmaydigan holda zulmatlarda qoldiradi. Ular kar, soqov va ko'rdirlar. Bas, ular hidoyatga qaytmaslar...»

(Baqara surasi, 16—18-oyatlar)

MUALLIFDAN

Butun olamlar Parvardigori Oллоhga behad hamd bo'lsin va payg'ambarlarning oxirgisi — sayyidimiz Muhammad alayhissalomga salovot va salomlar bo'lsin.

Albatta, hamd Oллоhga xosdir. Biz unga hamd aytamiz, Undan yordam so'raymiz. Va Oллоhdan nafsimizning yomonliklaridan panoh berishini so'rab iltijo qilurmiz. Kimni Oллоh hidoyat qilsa, uni adashtiruvchi yo'q. Kimni Oллоh adashtirsa, uni hidoyat qilguvchi yo'qdur.

Eng ulug' so'zlaru eng bilimli suhbatlar ham shubhasiz, Tangri taologa shukrimizni keragicha ifoda eta olmaydi.

Yaratgan Robbimizga shukrlar bo'lsinkim, siz — aziz nafis adabiyot muhoblari bilan yana dillashish nasib etyapti. Bu safar ham adashgan bandalar hayotidan ayanchli lavhani bayon etishni niyat qildim. Chunki bu sinovli dunyoda adashgan bandalar ko'p. Ulug' va qudratli Robbimiz marhamat qilib derki: «Odamlarga ayollardan, bolalardan, to'p-to'p tillo va kumushdan, go'zal otlardan, chorvadan, ekin-tikindan iborat shahvatlarning muhabbati ziynatlandi. Ular dunyo hayotining matohidir. Oллоhning huzurida esa husnli qaytar joy bor». (Oli Imron surasi, 14-oyat).

Tafsirchi ulamolarning fikricha, «shahvat» so'zi urfda jinsga oid ma'noda ishlatilsa-da, aslida o'zagi «ishtaha» so'zidan olingan bo'lib, ko'ngil tusashi, xohlashini bildirar ekan. Shunga ko'ra, oyati karimada insonning ayollarga, farzandlarga, boylikka **ishtahasi** mavjudligi, ya'ni shu narsalarga muhabbati chiroyli tarzda **ziynatlangani** ta'kid etilmoqda. «Demak, bu muhabbat insonning asl tabiatida bor ekan. Bunday holatning bo'lishi tabiiy bir hol ekan. Modomiki, ushbu rag'batlar inson tabiatida bor ekan, Oллоhning o'zi insonni shunday yaratgan ekan, bu narsalar inson hayotini muhofaza qilishda, uning go'zal va zavqli kechishida xizmat qilmog'i lozim. Shuning uchun Islom